

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA INTERYER DIZAYN TERMINLARINING QIYOSIY-LEKSIKOGRAFIK TAHLILI

<https://doi.org/10.5291/zenodo.20991476>

Maxsudova Xosiyatbonu Utkirbek qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

ingliz tili va adabiyoti kafedrası doktoranti

Annotatsiya

Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi interyer dizayn terminlarining qiyosiy-leksikografik xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqotda terminlarning izomorfik va allomorfik belgilari, ularning lug'atda berilish mezonlari hamda o'zbek tilida me'yorlashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Daliliy asos sifatida M. Hichmanning maxsus interyer dizayn lug'atida aniqlangan 4 343 ta bosh termin, Oxford akademik o'quv lug'atidan ajratilgan 192 birlik, Encyclopaedia Britannica VI jildidan olingan 49 birlik va Sh. Rahmatullayevning etimologik lug'atidan saralangan 103 turkiy leksema bo'yicha qiyosiy-statistik kuzatuvlar qo'llanildi. Natijalar interyer dizayn terminlarini o'zbekcha-inglizcha terminologik lug'atda bosh shakl, soha belgisi, ta'rif, ekvivalent, variant va qo'llanish namunasi bilan berish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar

interyer dizayn, terminologiya, qiyosiy leksikografiya, izomorfizm, allomorfizm, lug'aviy ekvivalent, terminografiya

COMPARATIVE LEXICOGRAPHIC ANALYSIS OF INTERIOR DESIGN TERMS IN ENGLISH AND UZBEK

Makhsudova Khosiyatbonu Utkitbek kizi

Andijan state institute of foreign languages

Phd student of the department of English language and literature

Abstract

The article examines the comparative lexicographic features of interior design terms in English and Uzbek. It analyzes isomorphic and allomorphic features of terms, principles of dictionary representation, and possibilities of standardization in Uzbek. The factual basis includes comparative statistical observations: 4,343 head

terms identified in M. Hichman's specialized dictionary of interior design, 192 units selected from the Oxford Learner's Dictionary of Academic English, 49 units from Volume VI of Encyclopaedia Britannica, and 103 Turkic lexemes from Sh. Rahmatullayev's etymological dictionary. The findings show that Uzbek-English terminological dictionaries of interior design should present the headword, field label, definition, equivalent, variants, and usage examples as a unified lexicographic model.

Keywords

interior design, terminology, comparative lexicography, isomorphism, allomorphy, lexical equivalent, terminography

СРАВНИТЕЛЬНО-ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ ИНТЕРЬЕРНОГО ДИЗАЙНА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Максудова Хосиятбону Уткирбек кизи

*Андижанского государственного института иностранных языков
докторант кафедры английского языка и литературы*

Аннотация

В статье рассматриваются сравнительно-лексикографические особенности терминов интерьерного дизайна в английском и узбекском языках. Анализируются изоморфные и алломорфные признаки терминов, критерии их словарного представления и возможности нормализации в узбекском языке. В качестве фактической базы использованы сравнительно-статистические данные: 4 343 заголовочных термина из специального словаря М. Hichman, 192 единицы из Oxford Learner's Dictionary of Academic English, 49 единиц из VI тома Encyclopaedia Britannica и 103 тюркские лексемы из этимологического словаря Ш. Рахматуллаева. Результаты показывают необходимость представления терминов интерьерного дизайна в узбекско-английском терминологическом словаре с указанием заголовочной формы, отраслевой пометы, определения, эквивалента, вариантов и примера употребления.

Ключевые слова

интерьерный дизайн, терминология, сравнительная лексикография, изоморфизм, алломорфизм, словарный эквивалент, терминография

ASOSIY QISM

Kirish

Interyer dizayn terminologiyasi hozirgi o'zbek adabiy tilida faol shakllanayotgan sohaviy leksik qatlamlardan biridir. Uning tarkibi me'morchilik, qurilish, amaliy san'at, rangshunoslik, ergonomika, materialshunoslik va marketing kabi yo'nalishlar bilan kesishadi. Ayni paytda soha ingliz tili orqali xalqaro muomalaga kirgan yangi birliklar, uslub nomlari va kasbiy nomlanishlar hisobiga muntazam boyib bormoqda. Shu sababli interyer dizayn terminlarini o'zbek tilida izohlash, tarjima qilish va me'yorashtirish jarayonida ingliz tilidagi terminlarning shakli, ma'nosi, qo'llanish doirasi hamda lug'aviy berilish usulini qiyosiy tahlil qilish zarur bo'ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi interyer dizayn terminlarining izomorfik va allomorfik belgilarini aniqlash, ularni leksikografik talqin qilish mezonlarini belgilash hamda o'zbekcha-inglizcha sohaviy lug'at yaratish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bunda terminlarning faqat shakliy o'xshashligi emas, balki tushuncha yadrosi, funksional qo'llanishi, kontekstual ma'nosi va lug'atda asosiy yoki variant birlik sifatida berilishi ham e'tiborga olinadi.

Tadqiqot materiali va metodlari

Tadqiqot materiali sifatida to'rtta leksikografik manba bo'yicha saralangan birliklardan foydalanildi. Maxsus sohaviy manba sifatida M. Hichmanning interyer dizayn lug'atidagi A-Z qismida 4 343 ta bosh termin aniqlangan. Umumakademik manba sifatida Oxford Learner's Dictionary of Academic English lug'atidan interyer dizayn bilan bevosita va bilvosita bog'liq 192 birlik ajratilgan; ularning 126 tasi predmet-makon qatlamiga, 66 tasi esa nazariy-loyihaviy va muhitga oid qatlamga mansub deb baholangan. Tarixiy-ensiklopedik manba sifatida 1823-yilda chop etilgan Encyclopaedia Britannica VI jildidan keng mezonda 49 birlik, shundan interyer dizayn bilan bevosita aloqador 34 birlik saralangan. O'zbek tilining milliy-etimologik asoslarini aniqlash uchun Sh. Rahmatullayevning etimologik lug'atidan interyer dizayn bilan bog'liq 103 turkiy leksema tanlangan.

Maqolada qiyosiy-tavsifiy, struktur-semantik, leksikografik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Terminlar shakliy yaqinlik, tushuncha mosligi, komponentlararo sintaktik munosabat, tarjimaviy muqobil, variantdorlik va sohaviy qo'llanish belgilari asosida o'rganildi. Izomorfik jihatlar deganda ikki tildagi terminlarning shakliy, tushunchaviy, funksional yoki modellashuv jihatdan o'xshash belgilari tushunildi. Allomorfik jihatlar esa terminlarning grafik, fonetik,

grammatik, semantik, uslubiy, tarjimaviy yoki leksikografik berilishidagi farqlarni ifodalovchi belgilar sifatida talqin qilindi.

Natijalar va tahlil

Interyer dizayn terminlaridagi izomorfik belgi, avvalo, ingliz va o'zbek tillarida tushuncha yadrosining mushtarakligida namoyon bo'ladi. Interior design va interyer dizayn birliklari turli lisoniy shaklda ifodalansa-da, ularning semantik markazi xonaning ichki makonini badiiy, funksional va kompozitsion jihatdan tashkil etishga qaratilgan. Bu tushuncha ichki makonni loyihalash, estetik bezash, mebel va jihozlarni joylashtirish, rang hamda material tanlash, yoritish tizimini belgilash va funksional rejalashtirish kabi komponentlarni qamrab oladi.

Ikkinchi izomorfik belgi xalqaro terminlarning shakliy jihatdan yaqinligidir. Interior - interyer, design - dizayn, minimalism - minimalizm, décor - dekor, module - modul, texture - tekstura kabi birliklarda terminning dastlabki leksik asosi saqlanadi. Ular o'zbek tiliga kimgach, talaffuz, imlo va grammatik qo'llanish jihatidan milliy til tizimiga moslashadi, biroq asosiy terminologik ma'nosidan uzoqlashmaydi. Shu bois bunday terminlarni lug'atda berishda o'zbekcha me'yoriy shakl, zarur hollarda inglizcha asl shakl va sohaviy ta'rif birgalikda ko'rsatilishi maqsadga muvofiqdir.

Uchinchi izomorfik belgi birikmali terminlar modelida kuzatiladi. Ingliz tilidagi accent wall, color palette, modular furniture, decorative lighting, functional zone kabi birliklar o'zbek tilida aksent devor, ranglar palitrasi, modulli mebel, dekorativ yoritish, funksional zona shaklida beriladi. Har ikki tilda birinchi komponent terminning belgi, vazifa, sifat yoki funksional xususiyatini aniqlaydi, ikkinchi komponent esa asosiy predmet yoki tushunchani nomlaydi. Masalan, accent wall - aksent devor birikmasida wall/devor asosiy obyektini, accent/aksent esa uning interyerdagi diqqatni jalb qiluvchi vazifasini bildiradi.

Allomorfik belgilar esa ayni tushunchaning ikki tilda har doim bir xil shaklda ifodalanmasligida ko'rinadi. Masalan, open-plan termini o'zbek tilida ochiq reja, ochiq makon, ochiq joylashuv yoki open space kabi variantlarda uchraydi. Terminografik nuqtayi nazardan ochiq reja shakli asosiy birlik sifatida tanlanishi, ochiq makon va open space esa variant yoki sinonimik muqobil sifatida qayd etilishi mumkin. Xuddi shuningdek, texture termini uchun faktura bosh shakl sifatida, sirt tuzilishi esa izohiy muqobil sifatida berilishi maqsadga muvofiq; finish termini esa kontekstga ko'ra pardoz, qoplama yoki yakuniy ishlov shaklida ifodalanadi.

Yoritish terminologiyasida ham izomorfik va allomorfik belgilar birgalikda namoyon bo'ladi. Ingliz tilidagi ambient lighting, task lighting, accent lighting,

decorative lighting birliklari o'zbek tilida umumiy yoritish, ishchi yoritish, aksent yoritish, dekorativ yoritish tarzida berilishi mumkin. Bu yerda izomorfik jihat yoritish turlarining vazifaviy mezon asosida tasniflanishida ko'rinisa, allomorfik jihat ambient so'zining bevosita tarjimasini bilan kasbiy ma'nosi bir xil emasligida namoyon bo'ladi. Shu sababli ambient lighting uchun muhit yoritishi emas, balki umumiy yoritish shakli mazmunan aniqroqdir.

Qiyosiy-statistik kuzatuvlar

Leksikografik manbalar tahlili interyer dizaynga oid birliklarning miqdori lug'at turi va maqsadiga bevosita bog'liq ekanini ko'rsatdi. Maxsus sohaviy lug'atda terminlar eng keng qamrab olinadi, umumakademik lug'atda esa asosan ilmiy nutqda faol bo'lgan keng qamrovli birliklar beriladi. Ensiklopedik manba predmet yoki hodisa haqida tarixiy-ilmiy ma'lumotni kengroq taqdim etadi. Etimologik lug'at esa terminologiyaning milliy-tarixiy asosini aniqlashga xizmat qiladi.

1-jadval. Tadqiqot materiallarining qiyosiy ko'rsatkichlari

Manba	Aniqlangan birliklar	Leksikografik ahamiyati
M. Hichman interyer dizayn lug'ati	4 343 bosh termin	Maxsus sohaviy terminlarni eng keng qamrab oladi
Oksford akademik o'quv lug'ati	192 birlik	Umumakademik ma'no va kollokatsiyalarni ko'rsatadi
Ensiklopediya Britannika VI jild	49 birlik; 34 bevosita	Tarixiy-ensiklopedik talqin va XIX asr termin qatlamini yoritadi
Sh. Rahmatullayev etimologik lug'ati	103 turkiy leksema	O'zbek terminoleksikasining milliy-etimologik asosini ko'rsatadi

Muhokama

Qiyosiy tahlil interyer dizayn terminlarini o'zbek tilida me'yorlashtirishda birgina tarjima ekvivalentini berish yetarli emasligini ko'rsatadi. Lug'at maqolasida terminning bosh shakli, soha belgisi, qisqa ta'rifi, inglizcha yoki o'zbekcha ekvivalenti, variantlari, sinonimik muqobillari va qo'llanish namunasi ko'rsatilishi kerak. Masalan, accent wall termini uchun aksent devor bosh shakl, urg'u devor

sinonimik muqobil, dekorativ devor esa mazmunan yaqin, lekin tushunchani to'liq qamrab olmaydigan birlik sifatida izohlanishi mumkin.

Mood board termini o'zbek tilida hali to'liq me'yorlashmagan neologik birliklardan biridir. Uni kayfiyat doskasi tarzida so'zma-so'z tarjima qilish kasbiy mazmunni yetarli ochmaydi, chunki bu birlik dizayn loyihasining rang yechimi, material tanlovi, faktura, uslubiy yo'nalish va umumiy vizual g'oyasini mujassamlashtiruvchi jamlanmani bildiradi. Shuning uchun lug'atda mood board shaklini saqlash, izohda esa vizual konsepsiya jamlanmasi kabi o'zbekcha muqobilni keltirish ilmiy-amaliy jihatdan asosli bo'ladi.

Manbalararo qiyoslash shuni ham ko'rsatadiki, bir xil birlik turli lug'atlarda turlicha vazifa bajaradi. *Architecture, texture, chair, table, brick, column, crystal, mirror, partition, marble, pattern* kabi birliklar maxsus interyer dizayn lug'ati va Oxford lug'atida uchraydi, ammo ularning talqini bir xil emas. Masalan, brick umumakademik lug'atda qurilishda ishlatiladigan pishirilgan loy material sifatida berilsa, maxsus lug'atda uning devor qoplamasi, sirt va dekorativ terim bilan bog'liq kasbiy turlari ham yoritiladi.

Xulosa

Ingliz va o'zbek tillaridagi interyer dizayn terminlarida izomorfik belgilar terminlar ifodalagan tushuncha yadrosining umumiyliigi, xalqaro terminologik asosning saqlanishi, birikmali modellar o'xshashligi va kasbiy-kommunikativ vazifalarning mosligi orqali namoyon bo'ladi. Allomorfik belgilar esa terminlarning fonetik-grafik, grammatik, semantik va leksikografik moslashuvi jarayonida yuzaga chiqadi. Open-plan, texture, finish, ambient lighting, mood board kabi birliklar o'zbek tilida bir necha variant orqali ifodalanishi mumkinligi sababli ularni lug'atda me'yoriy bosh shakl va izohiy variantlar bilan berish zarur.

O'zbek-ingliz interyer dizayn terminologik lug'atini yaratishda maxsus, akademik, ensiklopedik va etimologik manbalardan birgalikda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv terminning xalqaro shakli, milliy tilga moslashuvi, tarixiy-etimologik asosi va amaliy qo'llanishini kompleks tarzda aks ettirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hichman, M. The Fairchild Books Dictionary of Interior Design. 3rd edition. New York: Fairchild Books, 2014.
2. Oxford Learner's Dictionary of Academic English. Oxford: Oxford University Press, 2014.

3. Encyclopaedia Britannica; or, A Dictionary of Arts, Sciences, and Miscellaneous Literature. Vol. VI. London, 1823.

4. Rahmatullayev, Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati: turkiy so'zlar. Toshkent, 2000.

5. Dadaboyev, H. O'zbek terminologiyasi. Toshkent, 2019.

6. Shcherba, L.V. Opyt obshchey teorii leksikografii. Leningrad, 1940.